

UO‘T: 631.511:551.58.055

**G‘O‘ZA NAVLARIDA AGROTAVSIYALARNING
SAMARADORLIGI**

PSUYA ITIning q.x.f.d., prof., Namazov Shodman Ergashevich., Ilmiy rahbar,

PSUYA ITIning 1-bosqich tayanch doktoranti Xidirova Shohista Abdinabiyevna,

PSUYA ITI Qashqadaryo ITS Kichik ilmiy xodim Meyliyev To‘lqin Hasanovich.

Annotatsiya: *Bugunki kunda yaratilayotgan g‘o‘za navlari abiotik va biotik omillarga chidamli navlarini yaratish, uning agrotexnikasini o‘z vaqtida sifatli olib borishda seleksioner olimlarni o‘rni juda muhim hisoblanib klaster va fermerlar uchun foydalidir.*

Kalit so‘zlar: *Dunyo, paxta, abiotik, biotik, yuqori harorat, suv, zararkunanda, tanqislik, viruslar, omillar, salbiy, hosildorlik, natija.*

Аннотация: *Сегодня роль ученых-селекционеров в создании устойчивых к абиотическим и биотическим факторам сортов хлопчатника, своевременном проведении его агротехники считается очень важной и полезной для фермеров.*

Ключевые слова: *хлопок, абиотический, биотический, высокая температура, вода, вредители, дефицит, вирусы, факторы, отрицательный, урожайность, результат.*

Annotation: *Today, the role of selective scientists in the creation of cotton varieties resistant to abiotic and biotic factors, in the timely qualitative transfer of its agrotechnics is considered very important and useful for clusters and farmers.*

Key words: *World, cotton, abiotic, biotic, high temperature, water, pest, shortage, viruses, factors, negative, yield, result.*

Dunyo miqyosida keyingi yillarda global iqlimning keskin o‘zgarishi atrof-muhit, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga katta tahdid solmoqda. Xalqaro iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo Kengash ma’lumotlariga asosan (IPCC, 2007), rivojlangan mamlakatlarga nisbatan rivojlanayotgan davlatlar iqlim o‘zgarishidan ko‘proq zarar

ko'rhoqda. Chunki, rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodning yetakchi sohasi qishloq xo'jaligi bo'lib, aksariyat dehqonchilik yer maydonlari yarim-cho'l mintaqalarida joylashgani, shuningdek, yuqori harorat, suv tanqisligi, zararkunandalar, viruslarning salbiy ta'siri natijasida qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi pasayib ketmoqda. Yuz berayotgan ekologik o'zgarishlar tufayli abiotik (yuqori harorat, suv tanqisligi, sho'rlanish) va biotik omillar (zararkunanda, hasharotlar, kasalliklar)ning agressiv irqlari va populyasiyalarining ko'payishi Respublikamizda ham g'oz hosildorligiga salbiy ta'siri kuchayib, hosilga katta zarar yetkazmoqda. Bugungi kunga kelib respublikamizning Janubiy mintaqasida joylashgan Qashqadaryo viloyatida yozi keskin kontinental issiq, o'rtacha harorat cho'l zonalarida 35-37°C gacha yetadi. Yuqori zonalarda o'rtacha havo harorati 25-28°C da bo'ladi. Qashqadaryo viloyati tuprog'i qumoq yerlar ko'p bo'lganligi sababli havo haroratining keskin oshib ketishi o'simlikka ta'sir qilmasdan qolmaydi. Cho'lning Janubiy g'arbiy va g'arbiy qismining katta maydonlari qum uyumlari va tepalari bilan band. Iqlimi keskin kontinental, qishi qisqa (yanvarning o'rtacha temperaturasi -1,5°C, eng past temperaturasi -28°C). Bahor erta keladi, lekin, juda tez issiq boshlanadi. Yozi uzoq davom etib, juda quruq va issiq bo'ladi. Iyulning o'rtacha temperaturasi 28,2-31,6°C. eng yuqori temperatura 47 °C. Yog'in kam, hudud bo'yicha notekis taqsimlangan (g'arbida 146 mm, sharqida 230 mm gacha). Asosiy qismi qish va bahorda yog'adi. Qor qoplami har yili bir xil emas, ba'zi yillar 10-25 kun saqlanishi mumkin. Qor qalinligi 15-20 sm, ayrim yillari 30-40 sm ga etadi. Shamol va chang to'zonli bo'ronlar bo'lib turadi. Yozda quruq va issiq havo oqimlari (yuqori harorat) ko'pincha changli bo'ronlar bilan birgalikda sodir bo'ladi. Cho'lda tabiiy suv manbalari yo'q.

Qashqadaryo viloyati iqtisodning yetakchi sohasi qishloq xo'jaligi bo'lib, aksariyat dehqonchilik yer maydonlari yarim-cho'l mintaqalarida joylashgani, shuningdek, yuqori harorat, suv tanqisligi, zararkunandalar, viruslar (vilt) va h.k.ning salbiy ta'siri natijasida paxta hosildorligi 14-25% pasayib ketmoqda. Yuz berayotgan

ekologik o'zgarishlar tufayli abiotik (yuqori harorat, suv tanqisligi, sho'rlanish) va biotik omillar (zararkunanda, hasharotlar, kasalliklar)ning agressiv irqi va populyatsiyalarining ko'payishi Respublikamizda ham g'o'za hosildorligiga salbiy ta'siri kuchayib, hosilga katta zarar yetkazmoqda.

Shunday ekan bugunki kun zamon talabi g'o'za navlari tezpishar, serhosil, tola chiqimi yuqori, uning texnologik sifati yaxshi, chigiti sermoy, oqsil moddalarga boy, tashqi muhitlarga (tuproqning sho'rlanishi, past harorat, yuqori harorat, qurg'oqchilik va boshqalar) kasallik va zararkunandalarga chidamli, agrotexnika muhitida samarali foydalaniladigan, qator oralarini ishlashni mexanizatsiyalashga, mashina terimiga moslashgan, hamda boshqa qimmatli xo'jalik belgilariga va xususiyatlariga ega bo'lmog'i kerak.

Shuning uchun, xo'jalik uchun qimmatli belgilarning ijobiy majmuasi bo'yicha yuqoridagi talablarga javob beradigan g'o'za navlari seleksiyasi va agrotadbirlar bo'yicha ilmiy izlanishlar dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Turli duragaylash asosida olingan duragaylarda morfoxo'jalik, biokimyoviy va fiziologik ko'rsatkichlarning shakllanishini o'rganish asosida xo'jalik uchun qimmatli belgilar hamda yuqori haroratga bardoshlikning ijobiy majmuasiga ega seleksion ashyolarni yaratish va amaliy seleksiyaga tavsiya etishdan iboratligi sababli birinchi bo'lib quydagi agrotexnik tadbirlarni olib bordik.

Maqsaddan kelib chiqib 2023 yilning 24 dekabrda Oreon rusumli traktor yordamida 35-40 sm chuqurlikda shudgorlandi. 2023 yil 2 fevralda shudgor keng qamrovli yer tekislagich bilan tekislanib, 1 - martda 90 sm kenglikda pushtalar olindi hamda 13 martda gektariga 200 kg dan superfos sepildi va 20 martda sug'orildi.

1-jadval

Olib borilayotgan tajriba maydonida o'tkazilgan agrotadbirlar

T/r	Agrotadbirlar nomi	O'tkazilgan agrotadbirlar sanasi va soni		
		Birinchi	Ikkinchi	Uchunchi
1	Shudgorlash	24.12.		
2	Shudgorni tekslash	25.02.		
3	Pushta olish	01.03.		
4	Fosforli o'g'itlar	13.03. Suprfos. 200 kg/ga		
5	Pushtani sug'orish	20.03.		
6	Ekish oldi ishlov	16.04.		
7	Ekish	18.04.		
8	Begona o'tlardan tozalash	28.04.	25.05.	21.06.
9	Yagonalash	28.apr.	05.05.	
10	Qator orasiga ishlov berish	25.04.	06.05.	15.05.
11	Chhuqur yumshatish	10.05.		
13	Ozialantirish	8.06. karb.100+kal 100 kg/ga	16.06.Selitr.. 300 kg/ga	
14	Sug'orish	18.06.		

Pushtalar yetilgach, 16 aprelda ekish oldi ishlovi o'tkazilib, ekish tizimiga muvofiq navlar, duragaylar va tizmalar 18 aprelda ekildi. 28 aprelda qator oralig'iga dastlabki ishlov berildi. G'o'za nihollariga 10 mayda chuqur yumshatish (22-25 sm) qilindi, 6 mayda qator oralig'iga ikkinchi ishlov berildi, 15 mayda qator oralig'iga uchinchi ishlov berildi va 10-15 sm chuqurlikda 8- iyunda Karbomid 100 kg+kaliy 100 kg/ga berildi. 12 iyunda gektariga 300 kg dan ammiakli selitra

bilan g'ozda nihollari birinchichi marta oziqlantirildi va 18-iyunda birinchi sug'orish ishlari amalga oshirildi.

Tadqiqotimizning maqsadi turli xil genotipga ega duragaylarda Qashqadaryo viloyatining ekstremal tuproq-iqlim sharoitida g'ozada bo'ladigan fiziologik jarayonlarning o'rganish, hamda serhosil, ertapishar, kasalliklarga chidamli va tola sifati jaxon andozalariga mos seleksion ashyolarni yaratish va amaliy seleksiyaga tavsiya etish.

Adabiyotlar ro'yxati

1. *Omonov N. Parvarishlashning g'ozda hosildorligiga ta'siri. // Ilmiy anjuman 1999 yil 3 sentyabr O'zPITI. - Toshkent, 2001., - b. 103.*
2. *Paxtachilik spravochnigi, "Mehnat", Toshkent 1989 yil.*
3. *Dala tajribalarini o'tqazish uslublari. O'zPITI, Toshkent, 2007 y. -B. 1-46.*